

I.SANOAT

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2023- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni 3 985 taga yetdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 344 ta yoki 9,4 foizga oshgan.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 962 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ularning 14,2 foizi Uchquduq tumani, 12,5 foizi Navoiy shahri, 12,4 foizi Karmana tumani, 12,2 foizi Xatirchi tumani, 11,3 foizi Zarafshon shahri hissalariga to'g'ri keldi.




2023- yil 1- yanvar holatiga shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda

| | <i>faoliyat yuritayotgan</i> | <i>shundan,</i> | | <i>2022- yil yanvar- dekabr oylarida tashkil etilgan</i> |
|---------------|----------------------------------|-----------------------------|--------------------------|--|
| | | <i>yirik korxonalar</i> | <i>kichik biznes</i> | |
| Jami | 3 985 | 28 | 3 957 | 962 |
| Navoiy sh. | 820 | 12 | 808 | 120 |
| Zarafshon sh. | 365 | 2 | 363 | 109 |
| G'ozg'on sh. | 197 | 1 | 196 | 49 |
| Karmana t. | 664 | 5 | 659 | 119 |
| Konimex t. | 141 | 1 | 140 | 55 |
| Qiziltepa t. | 442 | 3 | 439 | 85 |
| Navbahor t. | 311 | 3 | 308 | 93 |
| Nurota t. | 283 | 0 | 283 | 52 |
| Tomdi t. | 92 | 0 | 92 | 26 |
| Uchquduq t. | 180 | 0 | 180 | 137 |
| Xatirchi t. | 490 | 1 | 489 | 117 |


Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2023- yil 1- yanvar holatiga)



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik


(2022- yil yanvar- dekabr)



2022- yil yanvar- dekabr oylarida sanoat mahsuloti hajmi 84 144,6 mldr. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati) 105,7 foizni tashkil etdi.

Hisobot davrida 4 676,5 mldr. so‘mlik iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilib, 2021- yil yanvar- dekabrga nisbatan o‘sish sur‘ati 104,2 foizni tashkil etdi.


Jumladan, 1 907,3 mldr. so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari, aroq-vino mahsulotlari va pivo, 2 769,2 mldr. so‘mlik nooziq-ovqat mollari (2021- yil yanvar- dekabrga nisbatan mos ravishda 102,9 foiz va 105,1 foiz) ishlab chiqarildi.



| | <i>mldr. so‘m</i> | <i>fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati, % da)</i> |
|--|-------------------|--|
| I. Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi | 84 144,6 | 105,7 |
| Tog‘ - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | 11 703,6 | 110,0 |
| <i>ulardan:</i> | | |
| Metall rudalarini qazib olish | 11 081,0 | 102,4 |
| Boshqa turdagи tog‘-kon sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish | 622,6 | 2,2 m. |
| Qayta ishlash sanoati | 67 926,6 | 104,2 |
| <i>undan:</i> | | |
| Oziq - ovqat mahsulotlari, ichimliklar tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish | 2 029,6 | 101,6 |
| To‘qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish | 2 677,4 | 103,3 |
| Yog‘och va po‘kak buyumlar, pohol va to‘qish uchun materiallardan buyumlar, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish | 122,2 | 121,7 |
| Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish | 10,6 | 85,5 |
| Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish | 1,0 | 56,4 |
| Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish | 5 782,5 | 119,4 |
| Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish | 7,1 | 42,0 |
| Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish | 2 074,6 | 83,7 |
| Metallurgiya sanoati | 50 295,6 | 104,8 |

| | <i>mldr. so'm</i> | <i>fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati, % da)</i> |
|---|-------------------|--|
| Mashina va uskunalaridan tashqari, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish | 3 119,3 | 92,1 |
| Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish | 81,3 | 50,3 |
| Elektr uskunalar ishlab chiqarish | 528,8 | 139,0 |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish | 536,1 | 197,5 |
| Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish | 584,1 | 139,6 |
| Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish | 16,1 | 45,1 |
| Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish | 60,3 | 141,3 |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | 4 459,3 | 107,9 |
| Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish | 55,1 | 61,7 |
| II. Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish | 4 676,5 | 104,2 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| oziq-ovqat tovarlari | 1 907,3 | 102,9 |
| nooziq-ovqat tovarlari | 2 769,2 | 105,1 |

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi ulushi, foizda




Yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 676,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 4,2 foizga oshgan holda, uning jam isanoatdagi ulushi 5,3 foiznitashkil etdi.



Yanvar- dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi (jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, % da)





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti
turlarini ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)**

| | <i>O'lchov birligi</i> | <i>2022- yil yanvar- dekabr</i> | <i>O'sish sur'ati, % da</i> |
|---|----------------------------|---|-------------------------------------|
| Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | | | |
| Chaqiq tosh (sheben) | <i>tn.</i> | 25 707,7 | 75,3 |
| Qayta ishlash sanoati | | | |
| Ammoniy sulfat | <i>ming. tn. azot</i> | 3,5 | 102,0 |
| Natriy gidroksidi (kaustik soda) | <i>ming. tn.</i> | 61,9 | 102,6 |
| Kalsiy xlorid | <i>ming. tn.</i> | 2,0 | 52,0 |
| Ammoniy nitrat (ammoniyli selitra) | <i>ming. tn. azot</i> | 289,9 | 106,6 |
| Superfosfatlar | <i>ming. tn. P2O5</i> | 2,3 | 106,3 |
| Mochovina (karbamid) | <i>ming. tn. azot</i> | 228,9 | 116,4 |
| Suvsiz ammiak | <i>ming. tn</i> | 741,4 | 106,8 |
| Portlandsement | <i>tn.</i> | 3 015,0 | 82,2 |
| Sirka kislotosi | <i>tn.</i> | 10 421,6 | 101,9 |
| Sement, beton yoki sun'iy toshdan qurilish uchun g'isht va bloklar | <i>tn.</i> | 23 421,1 | 115,6 |
| Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar | <i>tn.</i> | 6 543,0 | 126,6 |
| Yogurt | <i>tn.</i> | 15,5 | 137,1 |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni | <i>ming. tn.</i> | 54,7 | 193,7 |
| Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 g (buxanka) | <i>tn.</i> | 619,1 | 142,6 |
| Ishlov berilgan suyuq sut | <i>tn.</i> | 597,1 | 88,3 |
| Tvorog va tvorogdan mahsulotlar | <i>tn.</i> | 83,0 | 150,9 |
| Boshqa guruhlarga kiritilmagan, tarkibida asal, tuxum, pishloq yoki mevalar bo'lmagan uzoq saqlanmaydigan boshqa non mahsulotlari | <i>tn.</i> | 250,5 | 181,1 |



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2022- yil yanvar- dekabr oylarida 3 252,7 mlrd. so'mlik mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

| | <i>2021- yil yanvar- dekabr</i> | <i>2022- yil yanvar- dekabr</i> |
|--|-------------------------------------|-------------------------------------|
| Loyihalar soni, birlik | 200 | 264 |
| Korxonalar soni, birlik | 62 | 60 |
| Ishlab chiqarish hajmi, mln. so'm | 2 290 783,8 | 3 252 744,0 |
| Eksport qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, ming. AQSH doll. | 21 089,8 | 13 503,3 |
| Yaratilgan yangi ish o'rirlari, birlik | 741 | 416 |






2022- yil yanvar- dekabr oylari yakunlari bo'yicha hududlar
kesimida sanoat mahsulotlari hamda xalq iste'mol
mahsulotlari ishlab chiqarish

| | Sanoat mahsuloti | | Iste'mol mahsulotlari | | Jami sanoatdagи kichik biznes ulushi, % da |
|---------------|------------------|--|-----------------------|----------------------------|--|
| | mldr. so'm | fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati,) % da | mldr. so'm | o'sish sur'ati, % da | |
| Jami | 84 144,6 | 105,7 | 4 676,5 | 104,2 | 7,5 |
| Navoiy sh. | 71 074,2 | 106,3 | 1 042,3 | 96,1 | 1,9 |
| Zarafshon sh. | 437,7 | 108,6 | 318,2 | 94,8 | 99,2 |
| G'ozg'on sh. | 70,7 | 104,4 | 27,3 | 102,1 | 63,5 |
| Karmana t. | 8 151,4 | 105,4 | 1 095,0 | 118,7 | 21,2 |
| Konimex t. | 605,8 | 142,2 | 102,6 | 97,1 | 32,6 |
| Qiziltepa t. | 1 655,4 | 101,8 | 637,4 | 100,2 | 49,1 |
| Navbahor t. | 805,4 | 104,8 | 392,1 | 110,1 | 44,7 |
| Nurota t. | 342,5 | 108,5 | 299,7 | 114,8 | 100,0 |
| Tomdi t. | 50,0 | 104,2 | 44,5 | 101,3 | 100,0 |
| Uchquduq t. | 320,4 | 119,2 | 119,4 | 100,2 | 100,0 |
| Xatirchi t. | 631,1 | 102,8 | 598,0 | 100,1 | 99,0 |

Konimex tumanida (2021- yilning yanvar- dekabr oyiga nisbatan 142,2 foiz), Uchquduq tumanida (119,2 foiz), Zarafshon shahrida (108,6 foiz), Nurota tumanida (108,5 foiz) hamda Navoiy shahrida (106,3 foiz) sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati) viloyat ko'rsatkichdan (105,7 foiz) sezilarli darajada oshganligini izohlashimiz mumkin.

Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Karmana tumanida (2021- yilning yanvar- dekabr oylariga nisbatan 118,7 foiz), Nurota tumanida (114,8 foiz) hamda Navbahor tumanida (110,1 foiz) sezilarli darajada oshdi.





2022- yil yanvar- dekabr oylari yakunlari bo'yicha hududlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari hamda xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish

| | Sanoat mahsulotlari, ming so'm | | Xalq iste'mol mollari, ming so'm | |
|---------------|-----------------------------------|-----------------|-------------------------------------|----------------|
| | 2021 | 2022 | 2021 | 2022 |
| Jami | 71 925,7 | 80 546,7 | 4 241,8 | 4 476,5 |
| Navoiy sh. | 419 769,1 | 463 380,3 | 7 449,6 | 6 795,5 |
| Zarafshon sh. | 4 288,0 | 5 085,0 | 3 752,2 | 3 696,1 |
| G'ozg'on sh. | 6 385,3 | 7 836,6 | 2 735,0 | 3 024,2 |
| Karmana t. | 56 559,4 | 60 851,5 | 6 750,5 | 8 174,7 |
| Konimex t. | 3 162,7 | 16 346,6 | 2 863,0 | 2 769,6 |
| Qiziltepa t. | 4 769,8 | 10 486,6 | 3 865,5 | 4 037,6 |
| Navbahor t. | 5 995,8 | 6 836,2 | 2 694,5 | 3 328,2 |
| Nurota t. | 3 031,0 | 3 922,8 | 2 720,2 | 3 432,0 |
| Tomdi t. | 3 027,7 | 3 198,8 | 2 904,4 | 2 846,9 |
| Uchquduq t. | 5 384,7 | 8 266,0 | 3 131,1 | 3 080,8 |
| Xatirchi t. | 6 618,8 | 3 037,3 | 2 929,9 | 2 877,8 |

2022- yil yanvar-dekabr



Aholi jon boshiga
sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarish


o'sish sur'ati,
foizda

o'sish sur'ati,
foizda


Aholi jon iste'mol
mahsulotlari ishlab
chiqarish



2022- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ming so‘m



2022- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish, ming so‘m



2022- yil yanvar- dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Karmana tumaniga (8 174,7 ming so‘m), Navoiy shahriga (6 795,5 ming so‘m), Qiziltepa tumaniga (4 037,6 ming so‘m), Zarafshon shahriga (3 696,1 ming so‘m), Nurota tumaniga (3 432,0 ming so‘m), Navbahor tumaniga (3 328,2 ming so‘m) va Uchquduq tumaniga (3 080,8 ming so‘m) to‘g‘ri keladi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 6 593,9 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi.


O‘tgan yilda qo‘shma korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 7,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, hisobot davrida ham bu ko‘rsatkich 7,8 foizni tashkil etdi.

| | Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish | | shu jumladan, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarda | |
|---------------|-----------------------------------|---|---|-----------------|
| | mlrd. so‘m | Fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati), % da | mlrd. so‘m | Ulushi, % da |
| Jami | 84 144,6 | 105,7 | 6 593,9 | 7,8 |
| Navoiy sh. | 71 074,2 | 106,3 | 2 640,3 | 3,7 |
| Zarafshon sh. | 437,7 | 108,6 | 113,0 | 25,8 |
| G‘ozg‘on sh. | 70,7 | 104,4 | 0,5 | 0,7 |
| Karmana t. | 8 151,4 | 105,4 | 3 778,6 | 46,4 |
| Konimex t. | 605,8 | 142,2 | 1,2 | 0,2 |
| Qiziltepa t. | 1 655,4 | 101,8 | 5,7 | 0,3 |
| Navbahor t. | 805,4 | 104,8 | 44,1 | 5,5 |
| Nurota t. | 342,5 | 108,5 | 6,4 | 1,9 |
| Tomdi t. | 50,0 | 104,2 | - | - |
| Uchquduq t. | 320,4 | 119,2 | 0,9 | 0,3 |
| Xatirchi t. | 631,1 | 102,8 | 3,2 | 0,5 |


Sanoat mahsulotlari hajmida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ulushi, % da

2021- yil yanvar- dekabr

2022- yil yanvar- dekabr




Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, % da



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesni hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 6 300,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Hisobot davrida kichik korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 7,5 foizni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so‘m



2022- yil yanvar- dekabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Uchquduq tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (100 foiz), Tomdi (100,0 foiz), Nurota (100,0 foiz), Zarafshon shahri (99,2 foiz), Xatirchi (99,0 foiz), G‘ozg‘on shahri (63,5 foiz), Qiziltepa (49,1 foiz), Navbahor (44,7 foiz), Konimex (32,6 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Navoiy shahrida (1,9 foiz), Karmana tumanida (21,2 foiz) kuzatildi.

Statistik ko‘rsatkichlarga tushuntirish

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi - korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo‘ljallangan, o‘zining nosanoat bo‘lmalariga va kapital qurilishga mo‘ljallangan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishida o‘zgarish indekslari - solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir;

Iste‘mol mollari - asosan shaxsiy iste‘mol yoki foyda olish bilan bog‘liq bo‘limgan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste‘mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

Natura ko‘rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi - boshqa korxonalarga jo‘natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o‘z ichiga oladi, ya‘ni yalpi mahsulot;

Mahalliylashtirish darajasi - ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliylashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to‘lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo‘limgan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi;

Mahsulot sotish hajmi - savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).